



TURSUNBOY ADASHBOYEVNING POETIK MAHORATI

Xurshida Xamrakulova¹

Mohinabonu Pardayeva²

¹Toshkent amaliy fanlar universiteti professori, filologiya fanlari doktori

²Toshkent amaliy fanlar universiteti magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14884105>

Annotatsiya: Mazkur maqolada shoir va tarjimon Tursunboy Adashboyev ijodining o'rganilishi, shoirning badiiy mahorati, bolalikka bog'liq lavhalar, shoir ijodida ustozlar e'tirofi, ijodkor asarlarida yumoristik tasirlar, shoir loflari, arifmetik amallarga va harflarga xoslangan asarlar xususida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: she'r, mahorat, so'z sehri, yumor, lof, raqamli she'rlar, alifbe she'rlar, ertak, doston

Tursunboy Adashboyev bolalar adabiyotiga o'tgan asrning 60-yillari oxirida kirib keldi. Shoir ijodining o'sishi, kamolga yetishi ham bolalar adabiyotining shu davrdagi holati bilan yonma-yon o'rganildi. T.Adashboyev, bir tomondan, Quadrat Hikmatdan puxta vazn, ohangdorlik va to'q qofiyalarni, har bir misra ustida ishlash va manzara yaratish san'atini puxta o'rgangan, an'anaviy mavzularning go'zal badiiy san'atlar, tasviriy ifoda va ifodalarga yo'g'rilgan yangicha talqiniga erishgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, Sulton Jo'radan ma'rifiy-ta'limiy qarashlarni ijodiy rivojlantirib, alifbo-she'rlar turkumini yaratdi. Ijodiy ta'sirlanish ijodiy taqliddan xoli o'ziga xos original asarlarni yuzaga keltirdi.

"T.Adashboyev ijodiy mahoratini XX asrning 60-yillaridan bugungi kungacha bo'lgan o'zbek she'riyati taraqqiyoti bilan aloqadorlikda o'rganish shoir ijodiy laboratoriyasiga kirish, qalamkash ijodiy takomilini kuzatish hamda ushbu davr bolalar she'riyatining ochilmagan ba'zi qirralari haqida fikr yuritish imkonini yaratadi"¹. Tadqiqotchilarning ko'plab maqolalar, monografik tadqiqotlarida ijodkor she'rlarida an'anaviylik va badiiy mahorat masalalari, ustozlar an'alarining shoir ijodida zuhur topishi, xalq og'zaki ijodining ijodkor asarlarida o'rinishuvi, Vatan va tabiat manzarasi tasviri hamda vatanparvarlik g'oyasining o'ziga xos talqinlari, milliy qadriyatlar ustuvorligiga e'tibor, shoir she'rlarida badiiy san'atlarning qo'llanilishi, lirik qahramon yaratish muammolari kabi o'nlab muammolar tadqiq etildi. Bu masalalarning barchasi ijodkorning badiiy mahorati ijod bosqichlari doirasida o'rganildi. Bu borada Tursunboy Adashboyev ijodi haqida fikr bildirgan To'xir Malik, Qozoqboy Yo'ldosh, Anvar Obidjon, Safar Barnoyev, Dilshod Rajab, Salim Ashur, shoir ijodini monografik tarzda o'rgangan Rahmatilla Barakayev, Baxshillo Ashurovlarning ijodkor asarlariga bergan bahosi va xulosalarini alohida ta'kidlash kerak.

Tohir Malik Tursunboy Adashboyevning "Orzularim qo'sh qanotim" kitobiga yozgan so'zboshisida shoir shaxsiyati, shaxsiy kechinmalarning badiiy adabiyotga muhrlanishi xususida fikr bildirar ekan, Quadrat Hikmat va Tursunboy Adashboyev o'rtasidagi ustoz-shogird munosabatiga to'xtalib o'tadi: "Shogirdga ustozdan ikki benazir fazilati meros bo'lib qoldi. Biri – bolalar adabiyotiga sodiqlik, fidoyilik, ikkinchisi – yosh ijodkorlarga mehribonlik". Mana shu fazilat Tursunboy Adashboyevni ijodiy faoliyati davomida tark etmadi. Bolalar adabiyotiga sodiqligi va fidoyiligini birgina misolda ko'rish mumkin. Ma'lumki, jahon bolalar adabiyotida muayyan mavzuga bag'ishlangan asarlar, xususan, hayvonlar orasidagi ziddiyatlar, ayrim hayvonlarning fe'l-atvori bilan bog'liq motivlar ham uchraydi. Ana shunday doimiy mavzular sirasiga sichqon va mushuk haqidagi asarlarni kiritish mumkin. Ma'lumki, bu mavzuning eng yaxshi namunasini fors-tojik adabiyotining yetuk namoyandasi Ubayd Zokoni yaratgan. Uning "Mushuk ila sichqon qissasi" o'zbek tiliga shoir Xislat tomonidan o'girilgan. Tursunboy Adashboyev qardosh respublikalar va chet el bolalar adabiyoti vakillarining ijodiga mansub asarlarni to'plab, tarjima qildi. Bu ishni qalam haqisiz nashrga tayyorlashi uning bolalar adabiyotiga sodiqligi va fidoyiligini ko'rsatuvchi misollardan biridir. Kitobchada o'ttiz ikki ijodkorning asarlari jamlanib "Sichqonning orzusi" nomi bilan 2015-yilda nashr qilindi. Ular orasida Anvar Obidjonning "Bahona", Hamza Imonberdiyevning "Sirli futbol", Abdurahmon Akbarning "Mehribonlik", Bahrom Asqarovning "Ariza", Raim Farhodiyning "Kutubxonada", Tursunboy Adashboyevning

¹ Barakayev R. Ashurov B. Tursunboy Adashboyev fenomeniga bir nazar. – Toshkent: Akademnashr, 2014, 12-bet.



"Sichqonning orzusi" kabi o'zbek bolalar adabiyoti vakillarining ham asarlari kiritilgan. Bu hol muallifning o'zbek va jahon bolalar adabiyotining sinchkov kuzatuvchisi Tursunboy Adashboyevning adabiyotga sadoqatli ekanligini yana bir bor tasdiqlaydi. Shu o'rinda "Sichqonning orzusi" she'rining badiiyati haqida to'xtalib o'tsak. She'rda "Sichqonning ini ming tanga" degan maqol o'zgacharoq yo'sinda ifodalanadi. Ya'ni sichqon uchun orzu bu Mushukning changalidan omon qolish. Ammo bu buyuk orzu kutilmaganda o'zgacha ifodalanadi. Avvaliga sichqon Mushuk bo'lishni orzu qiladi. Chunki o'zining kushandasi bo'lgan kalamushning dodini faqat mushukkina bera olishi mumkin deb biladi. "Kalamushning – G'alamusning Qirib, dodin ber" gisi keladi. Shoir sichqon ruhiyati bilan bog'liq holatlarni bir-ikki shtrixda ifodalab beradi. Sichqon kalamushning "g'alamus" ekanligini dadil ayta olsa ham, odatiga ko'ra "asta o'ynab", ayni paytda o'ylabgina eshikka chiqadi. Mushukka ko'zi tushgach esa

Shoshganicha,

Qochganicha,

Kirib ketdi teshikka...

Bu o'rinlarda shoir sichqonning tabiiy holatidan bir tarafdin, ruhiy manzara kashf eta olgan bo'lsa, ikkinchi tarafdin, "Shoshganicha, qochganicha" so'zlariga yuklangan ma'no kulgi qo'zg'atadi.

Adabiyotshunos olim Qozoqboy Yo'ldosh Qunduz Husanboyeva bilan hammualiflikda yozilgan "Ikki elning shoiri" maqolasida shoir ertaklari, dostonlari, loflari va parodiyalariga e'tibor qaratdi. Shoirning bolatabiat ekanligini alohida ta'kidladi. Q.Yo'ldosh "bola nasihat xushlamasligini, u o'zini kichik deb o'ylaganlar, unga aql o'rgatib, yo'l ko'rsatadiganlar bilan ko'ngillashmasligini yaxshi tushunadi. Bola tenglik istaydi, baravarlik izlaydi. Bolaga teng bo'lganlargina unga el bo'la oladi. Tursunboy aka bola fe'l odam, salobatli ko'rinib obro' topishga intilmaydigan kichikko'ngil shaxs bo'lgani uchun ham bola yuragiga yo'l topa oladi", – deb yozar ekan, ayni vaqtda bolani ang'lay olish tuyg'usi bolalar adabiyoti vakillarining ham tabiatiga xos bo'lishi kerakligini uqtirib o'tadi. O'rni bilan muallif T.Adashboyevning "Bolalarga qisqa vaznli, kutilmagan qofiyalarga asoslangan, jinday yumor va falsafa omuxta qilingan she'r yozish kerak. Qofiyalardagi ohangdorlik asarni tez va oson yod olinishini ta'minlaydi", – degan fikrlarini keltirar ekan, shoir she'rlarida fe'l qofiyalardan kam foydalangani, imkon qadar ot yoki sifat, yoxud son, hatto yordamchi so'zlardan iborat qofiyalardan foydalanishini" kuzatgani ma'lum bo'ladi².

Dilshod Rajab "Yoqimli xazil va yorqin tasvir jilvasi" maqolasida T.Adashboyev asarlaridagi yumorga to'xtalib o'tsa, Salim Ashur "Kichkintoylarning katta shoiri" maqolasida bola psixologiyasini nozik kuzatish va undan o'rinli xulosalar chiqara olishdek mahoratini qayd etadi. U T.Adashboyevni "Parodiyalar qiroli" deb ataydi. Bundan ancha avval Tohir Malik "O'zbek parodiyasining otasi" deb atagan edi. T.Adashboyevning parodiyalari 2010- yilda "Parodiyalar", 2016-yilda "Xufyona jang" nomlari bilan nashr qilingan. Ma'lumki, parodiya biror asar, ijodkor, ijodiy uslub ustidan kulib yoziladigan asar hisoblanadi. Odatda parodiyada kulgiga olingan asarga xos belgilar saqlanib qolinadi, ammo mazmunan unga zid bo'ladi. Shunga ko'ra, parodiyaning mohiyati kulgiga olingan asar bilan birlikda anglashiladi. Ba'zan muayyan asarning shakliy xususiyatlarini saqlagan holda boshqa bir mavzuni hajviy talqin qilish ko'zda tutiladi. T.Adashboyev parodiyalariga maxsus so'zboshi yozgan Tohir Malik parodiyaning dastlab musiqa olamida paydo bo'lgani, hatto parodiya kinofilmlar yaratilgani, shuningdek, nasriy parodiyalar mavjudligi, ammo o'zbek adabiyotida hozircha she'riy parodiyalar mavjudligi xususida to'xtalib o'tar ekan, parodiyada shoirni masxara qilish ijodkor uchun husn sanalmasligini, she'ning kamchiligini katta xato sanab uni masxara qilish adabiyot emasligini ta'kidlab o'tadi. Parodiya yozgan ijodkor nazmning yuksak talablariga javob bera olishi kerak. Parodiyada kerakli o'rinda she'ning kamchiligi ko'rsatib o'tiladi. Shu bilan bir qatorda she'ning afzal xususiyatlari ham tilga olinadi. Parodiya qisqa, mazmunli va hazil ohangida bo'lmog'i lozim. O'nlab shoirlar ijodiga parodiya yozgan T.Adashboyev janrning mana shu qoidalariga amal qildi. Shuning uchun hajv tig'iga uchragan ijodkorlar shoirdan ranjigan emas, aksincha o'zining xatolarini parodiya orqali anglab yetganlar.

² Qozoqboy Yo'ldosh, Qunduzoy Husanboyeva. Ikki el shoiri. So'z yolgini. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot matbaa-ijodiy uyi, 2018, 18-bet.



Shoir ijodi yuzasidan salmoqli ilmiy tadqiqotlar orasida Baxshillo Ashurovning "Tursunboy Adashboyevning poetik mahorati" va shu muallifning R.Barakayev bilan hammulliflikda yozgan "Tursunboy Adashboyev fenomeniga bir nazar" monografiyalarini shoir ijodini o'rganishdagi jiddiy asarlar sifatida baholash mumkin.

Tursunboy Adashboyev ijodi, uning shaxsiyati haqida 2019-yilda nashrdan chiqqan "Tursunboy Adashboyev zamondoshlari xotirasida" nomli salmoqli kitob chop etildi. Bu kitobda shoirning ijodiy merosi, shaxsiy fazilatlar va bolalar adabiyoti rivojida ulkan hissasi, tarjimalari haqida yuzga yaqin muallifning bildirgan fikrlarida aslo mubolag'a yo'q, aksincha, bu fikrlarni shoir ijodiga berilgan samimiy baho deb hisoblash mumkin.

Shoir ijodini atroflicha tekshirish natijasida uning ijodidagi yirik uch bosqich ko'zga tashlanadi:

Dastlabki bosqich – XX asrning 60–70-yillari. Bu davrda o'zbek bolalar adabiyotida tarbiyaviylik ruhidagi asarlar keng o'rin tutgan. Shu ma'noda T.Adashboyev she'rlarida ham bu jihat bo'rtib ko'rinadi. Shoirning "Olatog'-lolatog'", "Arslonbop sharsharasi" to'plamlariga kirgan aksar she'rlar xususida shu fikrni aytish mumkin. Bu davrda shoir asarlari xalq og'zaki ijodi chashmalaridan suv ichdi. Jahon va milliy bolalar adabiyotining an'analarini o'zlashtirdi.

Ikkinchi bosqich – XX asrning 80-yillari. Bu davrda T.Adashboyev o'z ovozigacha, yo'nalishiga va uslubiga ega shoir sifatida shakllandi. O'tgan asrning 80-yillari oxirida ijtimoiy-siyosiy hayotda yuzaga kelgan o'zgarishlar ijodkor asarlarida ham aks etdi. Uning asarlarida ham davrning og'riqli dolzarb masalalari tasvirga tortildi. Bu davrda nashr qilingan "Oqbura to'liqlari", "Arslonbop afsonasi" kitoblariga kirgan she'rlarida shoirning poetik mahorati yarq etib ko'zga tashlanadi.

Uchinchi bosqich – istiqloq yillari. Bu davr shoir ijodida yangi yo'nalishni boshlab sermahsul ijod davri bo'ldi. Bu davrda ona-Vatanni yangicha nigoh bilan tarannum etish, muqaddas tuproq, milliy til va milliy qadriyatlar haqida jo'shib kuyladi. Shoirning "Orzularim – qo'sh qanotim", "Osmondagi darvoza" saylanmasiga kirgan she'rlarda shu hol kuzatiladi.

Ustoz ijodkor, ayniqsa, so'z bilan muayyan manzara chizishda san'atkorligini namoyish etgan. Shoir ijodida kutilmagan tabiat hodisalarining badiiy inkishofi bisyor. "Yaxmalak" she'rida ko'zoynakka o'xshash "muzoynak"ni ixtiro qiladi. Anxorning ham ko'zoynak taqib olganiga ishontiradi. "Chaqmoq" she'rida bahorning osmonga bulutdan ko'ylak tikishi ham o'ziga xos topilma. Muallif tabiat hodisalarini o'zicha sharhlash bilan manzaralari holatlarni ko'z oldimizga keltiradi. *"Quyosh esa tog' ortiga O'tgan edi g'ildirab", "— Sahar turib quyoshni Bog'lab terak uchiga, Maza qilib uchiray deb, O'ylab qo'ydi ichida"* ("Varrak") kabi obrazli topilmalari o'quvchining hayratini oshiradi. Shuningdek, manzaralarga boy lavhalari bola nigohi bilan kuzatilishi asnosida shoirning o'ziga hos iqtidorini namoyish qiladi. Quyosh botishi ("Kozim hayron"), qo'ziqorinning soyabon bo'lishi ("Soyabon"), sumalakning tarnovda burnidan osilib turishi ("Sumalak"), so'qmoq yo'lda raqs tushayotgan yomg'ir ("Manzara") kabi tasvirlar g'aroyib manzaralarga oshno qiladi. Shoir ijodining dastlabki davrlaridanoq manzaralarga e'tibor qaratgan. Uning kuzatuvlaridan chiqqan xulosalari ham o'ziga xos, betakror. Bu manzaralar sizni ham o'ziga chorlaydi. Shoirning o'xshatishlariga qo'shilasiz.

Kun botishi Kozimni

Juda hayron etibdi.

— Dada, quyosh dumalab,

Tog' boshiga yetibdi.

— Yiqilibdi shekilli

Burni qonab ketibdi... (**"Kozim hayron"**)

Quyoshning qizarib botishi manzarasida bola tasavvur va xayolot olami kengligi namoyon bo'ladi. Ya'ni bola nazarida go'yo quyosh dumalab tog'ning boshiga borishi, yiqilishi, burnining qonashi kabi tasvirlarda quyoshning bola nigohidagi muayyan obrazi jonlanadi. Tabiatning o'zgacha manzarasini "Sumalak" she'rida ham ko'rish mumkin.



Boychechaklar nish urib
To turguncha o'rnidan,
Bahor qishni tarnovga
Osib qo'ydi burnidan. (**"Sumalak"**)

Burnidan ochilib turgan sumalak – qish obrazi shoirning topilmasi hisoblanadi. Sumalakning tarnovda osilib turishida qishning shiddati, ayovsizligi ham sezilib turadi.

"Soyabon" she'rida esa bahorning eshik qoqishi bilan jonzotlarning uyg'onishi, tabiat hodisalari xususida ma'lumot beriladi. Shu o'rinda chumolining mo'ylovini burib dadil ishlashi ham shoirga xos nozik kuzataish ekanligini ta'kidlash lozim.

Bahor eshik chertdi barvaqt,
Ayiqlar esa hamon qishlar.
Parrandalar joy tanlashib,
In dardida xashak tishlar.
Chumolilar burab mo'ylov,
Saf tortishib dadil ishlar.

Shoir jonzotlar hayotini tabiat hodisalari bilan uyg'unlikda ko'radi. Bahordagi g'aroyib o'zgarishlar tabiat husniga husn qo'shadi. Shoir qo'ziqorinning unib chiqishi boshqa o'simliklarnikidan farq qilishini o'ziga xos kuzatish bilan tasvirlaydi. Buning uchun momoguldirakning o'qtin-o'qtin tor chertishi, bulut shatir-shutur borini to'kishi lozim. Shuning uchun qo'ziqorin tabiatning noyob hodisalari sirasiga kiradi:

Bexos momoguldirak,
O'qtin-o'qtin chertdi torin.
Shatur-shutur to'kdi bulut,
Bisotdagi neki borin.
Eh, ajabo, ko'ring ana,
Tabiatning iqtidorin.
Chumoliga soyabon —
Bo'ldi bir juft qo'ziqorin.

She'rning "Soyabon" deb atalishi bilan qo'ziqorinning qalpog'iga ishora qilingan bo'lsa ham, aslida, shoir nozik kuzatishlari bilan bu o'simlikning paydo bo'lish sabablarini shoirona izohlab bergan.

Muallifning "Tadbirkor jo'ja" she'ri ham "Soyabon she'riga o'xshab ketga ham, ifoda yo'siniga ko'ra hajv yetakchilik qiladi. Tasvirga tortilgan manzara deyarli bir xil, tuxum po'chog'in zontik qilib olgan jo'janing tadbirkorligidan "Yoqa ushlab qoldi xo'roz, Hayron g'ul'ul, laylak daroz". Odatda, shoir she'rlarida kulgi qo'zg'atuvchi vaziyat biron misra ma'nosiga yuklanadi. Bu she'rda ham xalq maqoli she'rda kulgi qo'zg'atadi. Soyabon detali vositasida turli mazmun-ma'no beruvchi she'rlar yarata olganligi shoir mahoratining yana bir qirrasini hisoblanadi.

T.Adashboyevning poetik mahorati ona-yurt, millat, milliy qadriyatlar madhida ham kuzatiladi. "Qiyosi yo'q", "Tuproq", "Sog'inch", "Ona tilim", "Zar uqali", "Olatog'lik bo'laman" she'rlarida yurt ta'rifi katta shavq bilan ta'riflangan. T.Adashboyev qaysi mavzuda qalam tebratmasin, shu mavzu, g'oyani yarq etib ochib yuboradigan ifodalar topa oladiki, bu o'quvchiga ham zavq bag'ishlaydi, ham shoirning so'zni o'rnida qo'llay olish mahoratidan hayratga tushadi. "Olatog'lik bo'laman" she'rida "*Olatog'lik bo'laman, Olatog'lik. Qordan durra bog'lagan Lolatog'lik*" kabi misralar uchraydi. Qordan durra bog'lash shoirning topilmasi. Ko'z o'ngimizda boshida oq durra bilan qo'r to'kib, atrofini kuzatib o'tirgan donishmand bobolarimizning qiyofasi jonlanadi. Qorli tog'ning oq qalpoq kiyishi Qudrat Hikmat ijodida "Go'yo ko'kka ustun tog', Kiygan suvsar, oq qalpoq" tarzida uchragan edi. T.Adashboyev esa Olatog'ning "qordan durra bog'lagan" deb atashi bilan tog' siymosiga qo'shimcha ma'no yuklaydi.



Tursunboy Adashboyev bolalar adabiyotiga uchlik she'rlari bilan ham hissa qo'shdi. Uchliklar she'riyatda kam uchraydigan hodisa. Ammo shoir uchliklarida voqeaband she'rlarning go'zal namunasini yarata oladi. Ma'lumki, voqeaband she'rlarda muayyan voqeaga xos shtrixlar, voqeani umumiy panoramasini beradigan bir-ikkita detal bo'ladi. Shuning uchun u epik bayon yetakchilik qilgan asarlardan farq qiladi. Shoir ana shu detal va shtrixlar yordamida butun jarayonni ko'z o'ngimizda chizib beradi. Shoir mana shunday murakkab voqeabandlikni uchliklar misolida ko'rsata oldi. Uning "Onajonim", "G'isht quyamiz" she'rlari uchliklarning chiroyli namunasi hisoblanadi.

Ma'no to'la gapida,
O'ng qo'lida rapida
Onajonim non yopar.

Chopar edim bog' ora,
Qo'lda singgi zog'ora,
Jonajonim non yopar (**"Onajonim"**).

Besh banddan iborat uchlikda shoir bolaligi haqida ham muayyan tasavvur uyg'onadi. Har band oxirida takrorlanayotgan "non yopar" birikmasi she'rga ham davomiylik, xam xazinlik bag'ishlaydi. Ammo shoir mahorati o'laroq she'r bolalarning ona haqidagi go'zal she'rlari qatoridan joy olgan.

Tursunboy Adashboyev ijodida bolalik pallalari bilan bog'liq tasvirlarda aksariyatida muallif onasining munis qiyofasi gavdalanadi, ikkinchi jahon urushi yetkazgan og'riqli jarohatlari tasvirlanadi. "Onajonim", "O'g'limga", "Oq fотиha so'radim", "Onam yopgan patirdek", "Yo'lchi yulduz", "Chakka", "Quyma kalish" kabi she'rlarida shu holni ko'rish mumkin.

T.Adashboyevning bolaligi 2-jahon urushining og'riqlari bilan birga tasvirlanadi. Shoirning bolalik lavhalari aks etgan she'rlar o'tgan asrning qirqinchi yillaridagi qishloq axolisining umumiy turmush tarzi shoirning oilasidagi turmush tarzi bilan bog'liq holda tasvirlangan. "Onamning duolari mening yo'lchi yulduzim" deb yozadi bir o'rinda shoir. Onaning duolari shoirni asradi, fojialarga to'la bolaligi aks etgan har bir she'rda shoirni baxtli kelajak sari yo'llab turdi.

"Yo'lchi yulduz" she'rida 1945-yilning yoz oyidagi lavhalar – muallifning yupun egni, yorilgan tovoniga onasining piyozdog' qilib bosishi, qirda boshqoq terish, bezgak xuruji, bir hovuch no'xatning oqshomga xo'rak uchun kifoya qilishi kabi kundalik maishiy tasvirlar shoir bolalik yillaridan bir lavhagina edi. She'rdagi oq surup, bir chaqmoq holva, qir, boshqoq, toshfonar, no'xat, xo'rak, talqon, xalta, pishloq kabi bir qator maishiy detallar shoir bolaligi o'tgan davrlarni ko'z o'ngimizda jonlantiradi. Ammo mana shu nursiz lavhalar ichida Davron akaning "Alpomish"ni oqshomlari yoddan o'qishigina uning hayotiga nur bo'lib kiradi.

"Tush bo'lib qolsin..." she'rida urushdan keyingi pishiqchilik manzarasi chizilgan. Ammo bu pishiqchilik ham shoir bolaligining og'ir o'tganligini ko'rsatadi. Qirda qora tariq sidirish, bug'doy poyasini qaychilash – tirikchilik tashvishi. Bu kunlarga yetib kelish shukronasi "Bu bir qozon qo'g'irmoch, shodligim nihoyasiz" degan misralar bilan ifodalangan. "Fufayka" she'rida maktab otasi jangda o'lgan yetimlarga fufayka tarqatilgani, shoirning o'z navbati yetib kelguncha safni yorib uyiga qochib borgani, cheksiz alam va otasizlik iztirob quyidagi misralarda ifoda etilgan:

Xuruj qilar bezgagim,
Sillam qurir zirqirab.
Qo'rg'oshinday zil yoshdan,
Qiprik nochor pipirar.

Fojialarga to'la bolalik she'rdan she'rga ko'chib o'tar ekan, bugungi hayotga shukronalik hissi oshib boraveradi.

Otasiz o'tgan bolalik, otasizlik fojiasi bola qalbini bir umrga jarohatlaydi. Bu fojia unutilmaydi, balki umrbod uning asorati bola qalbini azoblayveradi. Shoirning "Laylaklar" she'rida mana shu fojia ulkanlashib, umumbashariy tus oladi. Beshta kichik qismga bo'lingan she'r ota haqidagi ballada hisoblanadi. Shoir she'rning bir o'rnida



Bolaligim uchqur otim,
Orzularim qo'sh qanotim.
Bir juft chinor, qo'sh olmurut,
Uchta terak, bo'lmas unut,

– deb yozadi. Misralardagi fojaviylik alohida olinganda ko'zga tashlanmaydi. Ammo mana shu misralar tasvir etilajak fojia uchun kalit vazifasini o'taydi.

Shu chinorga uya qurgan laylaklarga o'q otgan bir nomard tufayli laylaklarning tak-tak" etgan bayotlari unutildi. Laylaklar o'z uyasini bir umrga tark etdi. O'n yil o'tgach, chinor va olmurutlar tagidan chiridi. Shoir otasizlik jamiyatni tubdan yemirilishga mahkumligini, oiladagi kemtik hayot jamiyat fojiasiga aylanib borishi mumkinligini otasiz qolgan laylaklar va otasiz qolgan uyalar misolida tasdiqlaydi. T.Adashboyevning "Ko'rik-tanlov", "Talqon" kabi she'rlarida ham bolaligi aks etgan lavhalar urush yetkazgan jarohatlar bilan birga tasvirlangan.

T.Adashboyev ijodida ustozlarga bag'ishlangan "O'qituvchim", "Navoiy bobomlar", "Ona tilim", "Ustozlarga bag'ishlov" kabi she'rlari mavjud. Ustozlarga ehtirom shoirning "*Bir umrga minnatdorman, Qadri baland ustozlardan. Bolalarga she'r yozsam, Ular ruhan qo'llar har dam*" degan e'tirofida ham sezilib turadi. Shoirning "O'qituvchim" she'ri darslik kitoblardan allaqachon joy olgan. Bu she'rni o'quvchilar yoddan biladi. Bir so'z bilan aytganda, "O'qituvchim" ustozga bag'ishlangan qasida hisoblanadi.

"Navoiy bobomlar" she'ri ulug' shoirga ehtirom o'laroq bitilgan. She'rda shoirning ulkan ishlari bolalarga tushunarli qilib bayon etilgan. "Qush tili", "Xamsa" kabi yetuk asarlar shoirning til borasidagi isloxotlari ham aniq va lo'nda ifodalangan. "Navoiy bobomlar, buyuk odamlar" misrasining har bandda takrorlanishi bilan shoir ijodiga tasanno aytiladi. "Ona tilim" she'ri "Navoiy bobomlar" kabi faxriya ko'rinishidagi asar hisoblanadi. She'rning yozilishi 1995- yilga, mustaqilligimizning ilk pallalariga to'g'ri keladi. O'z-o'zidan bu she'r millat birligini ifoda etuvchi til masalasining badiiy talqiniga bag'ishlangan. Shoir haqli ravishda

Alla bo'lib jaranglagan,
Ona tilim – jon-u dilim.
Chunki unga payvastadir,
Qadr-u qimmat, mehr dilim, – deb yozadi.

Ulug' o'tmishimizning shonli damlari haqida ona tilimiz tufayli ma'lumot olganmiz. Bu tilda Amir Temur jahonga dovrug soldi. Bu til bizga Navoiydan meros bo'lib qoldi. Mirzo Bobur she'rlaridan rang va ohang olgan til Mashrabni ham bulbulday sayratdi. Mirtemirday tabiat kuychisi ham shu til bilan yayrab qalam tebratdi. Har safar misra so'ngida takrorlanayotgan "tilim" so'zi o'ziga xos qo'shiqday eshitiladi. Bu takror pirovardida xulosada ham she'rdagi umumiy pafosni kuchaytirishga xizmat qilgan.

T.Adashboyevning "Ustozlarga bag'ishlov" she'ri haqida ko'p fikr bildirilgan. She'r muallifning she'riyat yo'liga olib kirgan ustozlari – XX asrning 30-40 yillari o'zbek bolalar adabiyotini belgilab bergan uch zabardast shoirlari – Quadrat Hikmat, Sulton Jo'ra, Zafar Diyorga bag'ishlangan. Darhaqiqat, bolalar adabiyotining shakllanishi jadidlar faoliyati bilan bog'liq bo'lsa ham, ularga yuqorida nomlari zikr qilingan ijodkorlar shakl-shamoyil bag'ishlagan edilar. Shuning uchun she'r muallifi ahli qalam va she'rga doir suhbat ketganida ko'z oldidan uch shoir o'tishini alohida ta'kidlaydi. Har band yakunida ham shoirlar nomi takror-takror tilga olinadi. Bolalarga yozilgan ertak va dostonlar ham shu uch shoir nomi bilan bog'liq. Shoir she'r so'ngida shoirlar nomlaridan o'ziga xos so'z o'yini hosil qiladi Natijada, ittifoq san'atining go'zal namunasi yuzaga keladi. Ittifoq mumtoz adabiyotimizda she'rda shoir taxallusining ham lug'aviy ma'nosida, ham taxallus ma'nosida ishlatilishidir. Ya'ni she'rda shoir taxallusi kelayotgan bo'lsa ham, uni o'z lug'aviy ma'nosida tushunish taqozo etiladi:

Uch ustozning yozganlari
Bolga tatir.
Biri Sulton, biri Zafar,
Quadratlidir.



Bolalarga she'r yozish ham o'ziga xos mas'uliyatli yumush. T.Adashboyev buni hamisha his qilgan. O'zi aytmoqchi *"O'qiganlar lol qolib: – Qoyil, – desin. Oh, qantday!"* ("Bolalarga she'r yozish...") demaguncha asar ustidagi ish yakuniga yetmaydi. Muallif bolalar adabiyotining chinakam fidoyisi edi. Bu fidoyilik va sodiqlik unga ustozlaridan o'tgan edi. Ustozlar izidan borib T.Adashboyev o'zi ham katta ustozga aylandi. Maktab yaratdi. Maktabning o'nlab shogirdlariga shoirning "Bolalarga she'r yozish" asari dasturul amal bo'layotir desak mubolag'a bo'lmaydi. Mazkur she'r o'zida bir qancha tavsiyalarni jam etgan. Buning uchun shoirning yuragi toza, bag'ri keng bo'lishi, boladay zavqlana olishi, she'rda sodda so'z ko'magida qalb ko'zini yorishtirishi, shuningdek, bolani tabiat bilan hamnafas qila olishdek fazilati bo'lish kerak. Shundagina tabiat in'om qilgan iste'dod ila bolaga she'r yoza olishi mumkin.

Bolalar adabiyotida she'riyatning yetakchiligi bir qator sabablar bilan izohlanadi. Nasrda mazmun yodda qoladi, nazmda matn Xalq og'zaki ijodidagi kichik janrlarning qofiyadosh so'zlardan tuzilgani ham bejiz emas. Ammo quruq qofiyabozlik bilan ish bitmaydi. Bolalarga taqdim qilinadigan she'rlarga qo'yiladigan muayyan talablar mavjud. Bolalar she'riyatiga xos matnlarning bola yoshiga mos bo'lishi, yengil o'zlashtirilishi, matn qatidagi ma'noning bo'rtib turishi, syujet rivojida birozgina kinoyaviy ruhning mavjud ekanligi, bu ruh asarga kulgi baxsh etishi yoxud asarni bola ko'z o'ngida jonlantirishga xizmat qilishi (nihoyada, kinoya matndan chiqarilgan xulosani tasdiqlashi lozim), obrazlarni qiyoslash bola ixtiyoriga havola qilinishi, chiqarilgan xulosa ongda jonlangan voqelikka mos kelishi, tasavvurini boyitish va tafakkurini kengaytirish imkonini berishi lozim. Tursunboy Adashboyev ijodi davomida mana shu talablarga sodiq qoldi. U so'zga mohir va talabchanligi bilan barobar bola tabiatining katta kuzatuvchisi, bola nimani his qilishini anglay oladigan shoir edi. Bolaga quruq nasihat qilish bilan uni o'zgartirib bo'lmaydi. Avvalo, bola olamining ichiga kirib borish lozim. Bola tabiati esa yumorga moyil. Yumor bir so'zda yoki bir jumlada aks etadi. Ixcham she'rlarda yumor bo'rtib ko'rinadi. Tursunboy Adashboyev ijodidagi aksar she'rlar qisqa satrlarda ifodalangan. Yumor bolaga o'z-o'zini fosh qilish imkoniyatini beradi. O'quvchi bir vaqtda she'rni va o'zini anglay boradi. Mana shu anglashdan zavq tuyadi. T.Adashboyev bu borada omadli ijodkor hisoblanadi. U ijodining dastlabki paytlaridayoq, yumor bola tabiatini kashf etish yo'l ekanligini anglagan. Shu bois deyarli barcha asarlari yumor hissini uyg'otadi. Yumoristik she'rlarda dialoglar kulgini kuchaytirish uchun o'ziga xos usul hisoblanadi. Ayniqsa, savol-javoblar va yakuniy xulosalarda yumoristik kulgi yashiringan bo'ladi. Masalan, "Bodring" she'rida yarim kechasi bodring yeyman deb xarxasha qilgan farzandiga *"– O'g'lim, yarim kechada Qilmagin g'iring-g'iring. Uxlayapti polizda Sen so'ragan bodring..."*, – deya vaziyatdan chiqib keta olish o'rinlari ham asarning xulosasiga, ham kulgining paydo bo'lishiga sabab bo'lmoqda.

Shoirning aksar she'rlarida yumoristik kulgi izohlarda aks etgan. "Usti ivib qoladi"da yomg'ir quyganida suvga qochuvchi baqalarga berilgan izoh (*"– Yomg'irdan qochmasami, Ust-boshi ivib qolar. Shuning uchun anhora Sho'ng'ib ketar baqalar"*), "Xavotir bo'lmang"da tufilisining ustida kalish kiyib olgan G'olibjonning izohi (*"– Ehtiyot qil, ayab kiy, Poyabzal, usti boshni. Eshikda loy yo'q axir, Yechib qo'ygin kaloshni. G'olibjon der: – Otimni Gijinglatib chopaman. Xavotir bo'lmang, oyi, Bosishga loy topaman"*), "Konfet"da yig'iga berilgan izoh (*"– Nor bilan o'ynasang-chi Hadeb yig'layverguncha. – Yig'layman, ishing nima, Oyim konfet berguncha..."*) kabi o'rinlarda izohlarning kulgi qo'zg'atuvchi usul sifatida bola olamini ichdan ko'rsatib berayotganini payqash mumkin.

Savollarga berilgan javoblarda ham yumoristik kulgi yashiringan. Ba'zan bu savollar sarlavhada aks etadi. Shoir esa uning javobini yakunda beradi. Masalan, "Sichqon qancha yashaydi" (*"Uning qancha yashashai mushuklarga bog'liq ish"*), "Poyezd nega pishillar" (*"Pish-pish etmasa bormi, Yorilib ketar qorni"*) she'rlarida shu hol kuzatiladi. Ayrim hollarda sarlavhaning mohiyati ustalik berilgan javoblarga yashiringan bo'ladi. Bu o'rinlarda kulgi fosh etish quroli bo'lib xizmat qiladi. Shoirning "Darvozabon", "Baho yetishmayapti", "Qorong'ida ko'rmabman", "Ishlarim ko'p", "Katta bo'lsam kiyaman" kabi she'rlarida qahramonning vaziyatdan silliq chiqib ketishga urinishi kulgiga sabab bo'ladi:

- Ne'mat, nega tabelingda
- Yaxshi baholarang kam? –
- Deb otasi so'ragandi,



Javob berdi xotirjam:

— O‘ylamang, “besh” qo‘yishni

Muallima ayapti.

Sinfimizda bola ko‘p-da,

Baho yetishmayapti... (**“Baho yetishmayapti”**)

Bolaning topqirligi, o‘zini tutishi, xotirjam javob berishi, savolga bolalarcha asos topib berishi shoirning “Qorong‘ida ko‘rmabman” she‘rida yana ham ochiq ifodalanadi:

— Bu nimasi, sandiqqa

Birov changal solibdi?

Bir xaltacha yong‘oqdan

Besh donasi qolibdi.

Hoy, bolasi tushmagur,

Yong‘oqlarni kim edi? —

Deb Nurmatdan onasi

Asta so‘ragan yedi,

Nurmat javob qaytardi

Boshini qilib sarak:

— Qorong‘ida beshtasin

Ko‘rmagan bo‘lsam kerak...

Tahlilga tortganimiz she‘rlar shoir ijodining ilk davriga mansub bo‘lib, shoir ijod namunalari o‘tgan asrning 60-yillar oxiri, 70-yillardan boshlab adabiyotga yangicha havo, toza ruh olib kirgani bilan bolalar adabiyotini yangi boschqichga ko‘tarilishiga, bolalar adabiyotiga bolatabiat bo‘lib qarash zaruratini paydo qildi.

Tursunboy Alashboyev ijodidaga ayrim she‘rlarda qizchalarning xarakteri bilan bog‘liq holatlar ochib beriladi. “Yig‘lama, oppoqqinam”, “Alam-alam”, “Esimda yo‘q”, “Ishlarim ko‘p” kabi she‘rlarda bu obrazlarning turli fe‘l-atvorlari va o‘ziga xos qiziqish olami ochib berilgan. Aslida kattalarga taqlid qilish, o‘zini alohida odam ekanligini o‘zgalarga anglatishga urinish bola tabiatining ajralmas bir qismi hisoblanadi. Ayniqsa, bu holat qizchalarda ertaroq kuzatiladi. Ularning o‘yinqaroq bolalarga nisbatan tezroq ulg‘ayishi ko‘pincha, uy yumushlariga erta tutinishi, oilada onasiga yordamchi maqomida bo‘lishi bilan bog‘liq. Qizchalarning o‘zini mustaqil shaxs sifatida baholashi qo‘g‘irchoqlar bilan o‘ynash jarayonida va o‘zaro munosabatda yaqqol kuzatiladi.

Ariqdan o‘tayotib,

Gulnora toyib ketdi.

— Muncha anqaydim, — deya

O‘zini koyib ketdi.

O‘rnidan turib darhol,

Ko‘ylaklarini qoqdi.

So‘ngra qo‘g‘irchog‘iga

Mehr-la kulib boqdi:

— Voy, qattiq yiqildingmi,

Ko‘zlari munchoqqinam?

Boshing toshga tegdimi,

Yig‘lama, oppoqqinam. (**“Yig‘lama, oppoqqinam”**)

Shoir Gulnora qizning darhol o‘rnidan turishi, ko‘ylaklarini qoqishi va qo‘g‘irchog‘iga mehr-la boqishida qizlarga xos harakatni uning xarakteriga xoslab beradi. Muallif onaga taqlid qilish, unga o‘xshashga urinish qizchalarning dastlabki taqlidiy belgilari sifatida ko‘rsatadi. Ammo bu taqlidchilikda yumor ham o‘zini namoyon etadi:

Halimaxon qo‘g‘irchog‘in



Yotqizib belanchakka,
Erkalab alla aytar,
Keng uyda o'zi yakka.
— Tezroq uxla, oppog'im,
Ishlarim bor bir talay.
O'pchigingni so'rib tur,
Men murabbo yeb olay... (**"Ishlarim ko'p"**)

Ma'lum bo'ladiki, qizaloqning ko'p ishlaridan biri murabbo yeyish, ammo uxlamagan "bola" sini tashlab keta olmaydi. Shu o'rinda shoir so'rg'ich o'rnida "o'pchik" so'zini qo'llab, lug'at boyligiga yangi bir so'z qo'shadi. Bu so'z so'rg'ichga nisbatan mayinroq eshtiladi.

Bola tabiatiga xos qiziquvchanlik, kattalarga turli savollar beraverib ularni bezor qilishi bolalar adabiyoti vakillari ijodida uchraydi. Ammo T.Adashboyev kutilmagan holatda muammoli vaziyat yaratadi va uning yechimi kitobxonni qanoatlantiradi. Shoirning "Esimda yo'q" she'ri fikrimizni tasdiqlaydi:

— Men qaysi ko'ylagimda
Tug'ilganman? — der Sora, —
O'zimning esimda yo'q,
Oyi, bilarsiz zora...
— Oying sendan o'rgilsin,
Oppog'im, do'mboq qizim.
Sen atlas ko'ylagingda,
Tug'ilgansan, yulduzim...

Sora qizning kutilmagan savoli uning anchayin kuzatuvchi va ziyrakligini ko'rsatadi. Bu o'rinda atlas ko'ylak javobi qizcha uchun juda ma'qul ekanligini sezish mumkin. Chunki qiz bola uchun atlas ko'ylak noyob qimmatbaho ko'ylak hisoblanib, uni bayramlarda, mehmonga borganda kiyiladi. Atlas ko'ylakli bo'lish qizcha uchun o'ziga xos maqom. She'ning o'tgan asrning 70-yillarida yozilganini nazarda tutsak, atlas ko'ylak eng obro'li ko'ylak bo'lganini ko'ramiz. Umuman, atlas milliy mato sifatida hamisha qadriyatlar qatorida turadi.

Muallifning "Alam, alam" she'rida ham qizchalarga xos kuzatuvchanlik, ziyraklik ortidagi qitmirlikni ko'rishimiz mumkin:

— Betoqat qiz Saida,
Sensan nafsing payida
Turmaysan dasturxondan
Uyalmaysan mehmondan.
Uyat-uyat!
— O'zing anor yeyolmay,
Ozgina ber deyolmay,
Ko'zing to'rt-ku bechora,
Ololmasang na chora,
Alam-alam!

Ma'lum bo'ladiki, Saida qiz bir vaqtning o'zida ham o'zini "esdan chiqarmagan", ham o'rtog'ining holini zimdan kuzata olgan. Shuning uchun "uyat"li vaziyatdan "alam" holatni paydo qilish unga muammo bo'lmay qoladi.

Bola tabiatini ichdan kuzatish asnosida o'g'il bolalarda kechadigan holatlar qizlarnikidan farqli ekanligi ko'zga tashlanadi. Ular biroz to'pori, soddaroq tarzda tasvirlanadi. Tor tufolini sandiqqa solib katta bo'lsa maza qilib kiymoqchi bo'lgan ("Katta bo'lsam kiyaman"), yangi tufisini ayab yalangoyoq yurgan ("Eski



bo'lib qoladi"), sahar turib quyoshni terak uchiga bog'lab varrak qilib uchirmoqchi bo'lgan ("Varrak") bolakaylar obrazlari ularga xos ajabtovur fe'llarini ochishga xizmat qilgan.

Odatda, she'rdagi kulgi xulosalarda aks ettiradi. Bolalarning ajabtovur odatlari, fe'llari bilan kishiga tabassum ulashadi. Shoir she'rning oxirgi misrasidagi so'z yoki birikmani sarlavhaga tugun qilib joylaydi. Tugun she'r oxirida ayni so'z bilan yechimga aylanadi. Bu hol shoirning "Joyiga osyapman", "Yalayapman" kabi she'rlarida ham uchraydi:

– Karimaxon, qayga ketding?

Kel, sochimni tarayapman.

Qatiqni tez olib chiq.

– Hozir opa qarayapman,

– Ozroq edi ichib qo'yma,

– Ichganim yo'q, yalayapman... (**"Yalayapman"**)

Ba'zan sarlavhaning "sir"i oxirgi misralarda ochiladi, bu ham kulgi qo'zg'ash usullaridan hisoblanadi:

Yig'ilguncha arpazorning

Somon, poxoli,

Makka qarib, ko'ksi uzra

Tushmish soqoli... (**"Qarib qolibdi"**)

Loflar xalq og'zaki ijodining latifalar va askiya kabi kulgi uyg'otuvchi ommaviy janri hisoblanadi. Loflar, odatda, badiiy adabiyotning epik turiga mansub janr bo'lib, dialog asosiga quriladi va unda bir lavhaga e'tibor qaratiladi. Lofda yolg'on voqea to'qilayotgani hammaga ma'lum bo'lsa ham, uni hech kim inkor etmaydi. Shu xususiyati bilan loflar kulgi qo'zg'atadi. Shoir ijodida ham yigirmadan ortiq lofga asoslangan she'rlari mavjud bo'lib, bu she'rlar "Latifboyning loflari" turkumi bilan mashhur. Ular orasida Bo'riga bir qop sabzi orqalatib unga miltiq o'q'talib ketayotgan polvon Quyonna ham ("Ko'zin ochsa"), Tulkiga minib olgan chipor Xo'roz va Toshbaqani minib olgan Chigirkani ham ("Bu dunyoning ishlari"), Mushukning manglayidan "Balli" deya o'pib qo'ygan Sichqonna ham ("Jasorat"), oltita o'rgimchakni to'r to'qishga ko'ndirgan, Chigirtkaning erkagiga yugan solib, egar urib minib olgan Latifboyning ham ("Men o'sha Latifboyman", "Yugan solib, egar urib"), qurilmagan tandirda shirmon kulcha yopayotgan Chumolini ham ("Shirmon kulcha") uchratish mumkin. Bu loflarning juda ko'pi lofchi Latifboy bilan bog'liq. Erkin Vohidovning "Donishqishloq latifalari" turkumi haqida eshitgansiz. Unda Matmusa degan bosh qahramon bilan bog'liq latifalar bor edi. Erkin Vohidov birgina obrazni turkumga bosh qahramon qilib unga bog'liq turli latifalarni she'riy usulda bayon qilgan edi. Tursunboy Adashboyev esa Latifjonni loflarning asosiy qahramoni sifatida turkumda aks ettirdi va bolalar adabiyotida yangi yo'nalishga asos soldi. Latifboy o'zining lof sarguzashtlari bilan jahon adabiyotining mashhur qahramoni Myunxauzendan kam emasligini isbotladi. Ayniqsa, o'rgimchak to'ri bilan Oyni yopish mumkinligi Myunxauzenning Oydan arqon bilan osilib tushganini yodga solsa, ba'zi o'rinlarda Myunxauzeni ham ortda qoldiradi. Latifboyning ko'z ko'rib quloq eshitmagan loflariga jonzoatlarning juda ko'pi sherik. To'r to'qiyotgan o'rgimchaklardan tortib, ertalabdan ish boshlagan yuz ming chumoli-yu, yordamga yetib kelgan Chag'alay qo'shinigacha Latifboyning xizmatida turadi. Latifboyning ertaklari ham o'ziga xos. Shu bois chigirtkaning erkagiga "yugan solib, egar urib", "otquloqdan qalqon qilib", "qamishlardan nayza urib", uzangini niqtab borishiga ajablanmasa ham bo'ladi. Bugina emas, bo'rdoqiga boqilgan beshta pashshaning egasi ham Latifboy ekanligiga ajablanmasa ham bo'ladi. Shoirning "Barchasi yodimda", "Poyga zavqi", "Yaylovda" "G'urg'ulday", "Kapalak tug'ilganda" kabi bir qator loflari ham kutilmagan hodisalarga boyligi bilan o'quvchini o'ziga tortadi.

Barchasi yodimda, esimda,

Hali tug'ilmagan kezimda

Bobomning yilqisin boqardim,

Xarsang toshga qoziq qoqardim (**"Barchasi yodimda"**)

Shoir "hali tug'ilmagan kezimda" misrasini bot-bot takrorlash bilan lofning ta'siri va kulgi qo'zg'atar kuchini ko'rsata oladi. Loflar eskirmaydi. U xuddi latifalar kabi yashovchanlik xususiyatiga ega. Uning



qahramonlari barcha zamonlarda mavjud bo'ladi. Anvar Obidjon o'rinli ta'kidlaganidek, shoir yaratgan loflar ham bolalar adabiyotining xazinasidan munosib o'rinni egalladi.

Matematik amallar, turli raqamlardan foydalanib obrazlar, turli syujetlar yaratish ijodkorlar asarlarida uchraydi. Ammo har bir ijodkor bu hodisaga o'ziga xos usul bilan yondashib, yangidan yangi qirralarni kashf etadilar. Tursunboy Adashboyev asarlari orasida "To'rt amal", "Oluv", "Qo'shuv", "Ko'paytiruv", "Bo'luv", "To'rt amaldan – bir amal" singari matematik amallarning xususiyatlari aks etgan she'rlari bilan bir qatorda raqamlar va ulardan to'g'ri foydalanishga undovchi "Yetmay qoldi", "To'g'ri taklif", "Bobo qancha yoshdasiz?", "O'n kaptar", "Oq shaftoli" kabi jumboqli asarlari ham uchraydi. Bu tipdagi she'rlar quruq bayondan iborat bo'lmay, shoir har bir she'rga xos syujet topa biladi. Va mana shu syujet amallar yoki raqamlar vositasida harakatlana boshlaydi.

Yong'oqqa o'ch Olmaxon,
Hadeb boshin qashiydi.
Uchdan to'qqiz olinmagach,
Uyga nima tashiydi?
Ko'rsatmaydi Qarqunoq,
Shpargalka qorasin.
Uch ortiga nol qo'yib,
Topdi oxir chorasini (**"Oluv"**)

Arifmetik amallarga xoslangan she'rlar o'quvchini xushyorlikka, ziyraklikka chorlaydi. Imkonsiz hollardan yo'l topa bilishga undaydi. Ba'zan jumboqlar javobi muallif tomonidan aytib o'tiladi va uning nima uchun shunday yechim topishi kerakligi o'quvchiga muammo sifatida taqdim qilinadi. Bu hol "Ko'paytiruv" ("– Olti karra olti-chi? O'yla, qancha bo'ladi? O'ttiz olti karamga Oltita qop to'ladi") "Bobo qancha yoshdasiz?" ("– Yetmish sakkiz yoshga chiqdik, Nabiramiz ikkovlon") she'rlariga xos bo'lsa, ba'zan raqamlar hisobi o'quvchiga havola qilinadi. Ayrim she'rlarda bolalarga xos quvlik bilan muammo yechim topadi:

– Jami yuzta shokoladga
Biz yana yuzta qo'shsak,
Qancha bo'ladi?
– Ancha bo'ladi!
– Yo'g'-ye, jamlab qara,
Boshqa sana,
Aniq javob berish kerak.
–Uni sanab o'tirmasdan
Mazza qilib yeyish kerak (**"To'g'ri taklif"**).

Tursunboy Adashboyevning topishmoq she'rlari ham bolalar tafakkurini charxlaydigan, ularning kuzatuvchanligini oshiradigan, o'ziga xos obrazlar yaratishga xizmat qiladigan asarlardir. Soatni topishga undalgan "Tal'atning tulpori", bobo va nabirasining yoshini topishga yo'naltirilgan "Bobo qancha yoshdasiz?", hayvonlar nomiga va soniga ishora qiluvchi "Topqir bo'lsang", "Nechta shalpang qulog'i?" kabi she'rlarida ham shoirona tashbehlarni kuzatamiz.

Soatni taqalangan tulporga ("Tal'atning tulpori") o'xshatgan shoir topishmoqqa xos belgilarni ham aytib o'tadi. Ya'ni bu tulpor "O'n ikkita dovonni Bir kechada oshadi", "Kunni tunga ulashdan" charchamaydi. "Bir zum tinim bilmaydi", "Vaqtini o'lchash borasida" u "shunqorlarning shunqori" hisoblanadi. Topishmoqlarda, odatda, yashiringan narsaning belgilari topish uchun ishora sifatida aytib o'tiladi. Ayniqsa, bolalar uchun maxsus yozilgan she'riy topishmoqlarda bu belgilar yana ham bo'rttirib ko'rsatiladi. Shu tariqa bola belgilar izidan borib yashiringan narsani topadi. Bu she'rda ham shoir ana shu usul orqali bolani ham yashiringan narsani topishga, ham shu belgiga xos tashbeh (tulporni) birma-bir izohlaydi:



To'rt tuyog'i kumushdan —
Taqalangan tulpordek.
Kech qolganday yumushdan
Chopqillaydi shunqordek.
O'n ikkita dovonni
Bir kechada oshadi.
Shoshadi,
Manzil yiroq,
Hormas biroq. (**"Tal'atning tulpori"**)

T.Adashboyevning "Bobo qancha yoshdasiz?" deb nomlangan she'riy topishmog'ida shoir matematik usul bilan bolani charxlayotganini kuzatish mumkin. She'r dialog suhbat asosiga qurilgan. U epik asarlarga xos tugun, kulminatsiya va yechimdandan iborat syujetning muayyan unsurlaridan tashkil topgan. Kenja nabirangiz necha yoshga chiqdi? – deyilgan savol uchun bobo "Men qanchaga chiqqan bo'lsam, shuncha oylik bo'ldi, bo'tam", – deb javob berishining o'zi topishmoq uchun muammo sifatida qo'yiladi. Javob undan qiziq: "Yetmish sakkiz yoshga chiqdik Nabiramiz ikkovlon". Muammo yuqori cho'qqiga ko'tariladi. Endi topqir o'quvchi ikkita odamning yoshini topishga tutinadi. Bunday topishmoq usuli bolalarni jumboqlarni hal qilishga undash bilan barobar, ulardagi aqliy salohiyatni oshishiga xizmat qiladi. Yakundagi yechimsizlik bolani turli xil javoblar taqdim qilishi mumkinligini ko'rsatadi:

Kim topadi Ro'zmat bobo
Jancha yoshga to'lganligin?
Nabirasi Nazir esa,
Necha oylik bo'lganligin?. (**"Bobo qancha yoshdasiz?"**)

Boshlang'ich sinflarda asosan to'rt matematik amal bilan ish ko'riladi. Shu bois muallif har bir amalning o'ziga xos jihatlariga alohida to'xtaladi. She'riy jumboqlarning berilishi esa bolani hayotiy masalalarda tayyor turishga, nazariy masalalarga amaliy yechim topishga o'rgatadi.

Bolalar adabiyotida alifbe she'rlarga munosabat bildirgan Baxshillo Ashurov "Tursunboy Adashboyevning poetik mahorati" deb nomlangan kitobida shunday yozadi: "Alifbo-she'rlarga muayyan davrlar orasida talab paydo bo'lishi tabiiy hol. Masalan, XX asrning 30-yillari oxirida yaratilgan alifbo-she'rlar 60-yillar o'quvchisi talabiga to'la javob berolmaydi. Binobarin, avlodlar almashinuvi bilan avval yaratilgan alifbo-she'rlar eskirib, ularning o'rniga yangilari paydo bo'lishi shu bilan izohlanadi. Bundan tashqari, alifbo-she'rlar, odatda, yangi alifbo qabul qilinishiga bevosita aloqador bo'ladilar. Binobarin, Sulton Jo'raning "Harflar paradi" alifbo-she'ri lotin yozuvidan kirill alifbosiga o'tish davri mahsuli bo'lsa, T.Adashboyevning "Topishmoqli alifbe" kitobchasi lotin yozuviga asoslangan o'zbek imlosiga o'tish davri mahsulidir". Yangi alifboga o'tish davri o'ziga xos murakkablikni yuzaga keltiradi. Bu borada ijodkorlar metodist olimlarga yordamga keladi. Shu ma'noda alifbo-she'rlar davr talabi mahsuli hisoblanadi.

Alifbe mavzusi bilan bog'liq asarlar bolalar adabiyotida bot-bot uchrasa ham, T.Adashboyev ijodida u alohida bosqichga ko'tarilgan. Shoirning ertak va she'rlarida alifbe manzumalarga duch kelamiz. Birgina "Harflarning sarguzashti" ertagiga o'xshash syujet uning 1990-yilda "Alg'ov-dalg'ov aralash" she'rida hamda 1997-yilda nashrdan chiqqan "Topishmoqli alifbe" kitobchasida ham davom etganligi muallifning bu mavzuga ayrica qiziqish bilan qaraganini ko'rsatadi.

"Harflarning sarguzashti" ertagi Jovanni Rabonining "Qaysar raqamlariga javoban yozilgan. Umuman bolalar adabiyotida alifbo manzumalar bot-bot uchraydi. O'zbek adabiyotida alifbo she'ring dastlabki namunasi 1940-yilda "Harflar paradi" nomi bilan Sulton Jo'ra ijodida uchraydi. Uning "Tinish belgilari majlisi" va "Kimning xati chiroyli?" she'rlari ham kirill yozuvi asosidagi o'zbek alifbosiga o'tilishi munosabati bilan bitilgan. Odatda, alifbo she'rlar o'quvchilarga estetik zavq berib qolmay bolalarga maktab



dasturlarini o'zlashtirishda ham yordam beradi. Muallifning "Harflarning sarguzashti" ertagining yaratilishida Sulton Jo'ra ijodining ta'siri bo'lishi tabiiy. Ertak 1985-yilda nashr qilingan "Oqbura to'lqinlari", 1988-yilda nashrdan chiqqan "Arslonbop afsonasi" kitoblariga kiritilgan. Ertak yozilgan paytlar o'zbek yozuvchida kirill alifbosi amal qilgan davrlarga to'g'ri keladi. Shuning uchun bugungi o'quvchi ertakdagi harflar sonining ortiq ekanligiga tushunmasliklari mumkin. Balki shuning uchun ham bu ertak shoirning 2003- yilda nashr qilingan "Orzularim – qo'sh qanotim" nomli kitobiga kiritilmagan. Ammo asar qaysi davrning hosilasi bo'lishiga qaramay, ijodkorning noyob iqtidori, badiiy mahorati, ijtimoiy hodisalarni teran anglash, tahlil talqin nuqtayi nazaridan o'rganilaveradi. Ertak harflarning Sobirdan xafa bo'lib ketib qolishlari bilan boshlanadi. T.Adashboyev alifbo harflar mojarosida alliteratsiya usulidan o'rinli foydalanadi. Alliteratsiya she'riy nutqda (nasrda nisbatan kam) bir xil undosh tovushlarning takrorlanishiga asoslangan ifodaviylikni kuchaytiruvchi vosita hisoblanadi. Alliteratsiya natijasida so'zlarning ifodaviyligi ortadi, she'rning musiqiyli va xushohangligi kuchayadi. Bunday takrorlar o'quvchilarning harflarni oson yodda saqlanishi va ketma-ketligini o'zlashtirishda alohida ahamiyat kasb etadi. Shoir tush elementini voqeaning rivojiga asosiy vosita qilib olar ekan, unda ertaknamo sarguzashtlarga keng o'rin beradi. Ertakdan ma'lum bo'lishicha, fanni o'zlashtira olmayotgan, so'zlarni hamon hijjalab o'qiyotgan Sobirdan arazlagan harflar "Alifbe"ni tark etishadi. Sobirning o'rtoqlari uning joniga oro kirishadi:

Akram, Akmal shu mahal,
Aro kirishdi jonga.
"A" harfi ketgan ekan,
Arazlab Andijonga.
Bahrom, Bahri, Bahodir
Belni bog'lab chopishdi.
"B"ni bo'lsa o'sha kuni
Buxorodan topishdi.

Harflarning jonlantirilishi, ularni topish bilan bog'liq qiziqarli syujet bolaning alifbeni tezroq va puxta o'rganishini ta'minlagan. Bu qiziqarli o'yin vositasida amalangan oshirilgani ham asarning o'qishli bo'lishini ta'minlagan. Muallif asar davomida badiiy shartlilikka amal qiladi. Ya'ni asarning Sobirning tushi misolida amalga oshishi harflarning jonlanishi, ularning shahar va qishloqlarga qochib ketishi tasvirida bola voqealarning uydirma ekanligini anglab tursa ham, uni tabiiy ravishda qabul qiladi. O'zi ham go'yo asar ishtirokchisiga aylanadi, voqealar rivojini astoydil kuzatadi. Ya'ni tushdagi syujetni xuddi o'ngida ro'y berayotgandek qabul qiladi. Bu badiiy asarning o'quvchiga ulashgan estetik ta'siridir.

T.Adashboyev ijodida "Alg'ov-dalg'ov aralash" turkumida o'n bitta harf va tutuq belgisiga oid she'rlar kiritilgan. Nomidan ham ma'lumki, shoir hamma harflarni ketma-ket kiritishni maqsad qilmagan. Bunda ham alliteratsiya usuli yetakchilik qilgan. Harflar bilan bog'liq "Farqi bitta harfda", "Chumchuqlarga uyadir" she'rlari esa birgina harf bilan ma'nosi o'zgaradigan so'zlarga bag'ishlangan. "Farqi bitta harfda", "Chumchuqlarga uyadir" she'rlarida harflarning almashishi bilan so'z mazmunida o'zgarish yuzaga kelsa (Yol, Tol, Chol, Dol, Xol kabi), so'zni bir harfdan kamaytirib borish ham (Buloq, Uloq, Oq kabi) ifodada o'ziga xos usul ekanini ko'ramiz. Ba'zi o'rinlarda shoir so'zdan ma'no chiqarishni o'quvchiga havola qiladi. Bunda muammo janrida bo'lgani kabi masalani topish yo'llariga ishora qilinadi:

"Qayiq", "Qalqon", "Hakka", "Lola",
"To'ra", "Anor", "Ari", "Chana".
Bitta harfni almashtirib,
O'zga bir so'z toping yana...

Harflardan vositasida lug'at boyligini oshirish, so'zga e'tibor, so'z ma'nosini mushohada qilish bolani kitobga, adabiyot olamiga oshno qiladi. O'zgani his qilish o'zi ishlatayotgan so'zni his qilishdan boshlanadi. T.Adashboyevning talabchanligi ham avvalo so'zga bo'lgan e'tibor bilan bog'liq edi.



Tursunboy Adashboyev o'tgan asrning 70-yillaridan boshlab bolalar adabiyotida o'ynoqi so'zlar, go'zal iboralar, yoniq tuyg'ular, tagdor tashbehlar vositasida she'riyatni kichkintoylarning ma'naviy ehtiyojiga aylantira olgan shoir sifatida muhim o'rin tutdi. O'tgan yillar mobaynida zalvarli masalalar – o'zlikni tanish, bobomeros yurtga egalik hissini tarbiyalash kabi jiddiy hodisalarni quvnoqlik zamiriga singdirish bilan bolalar qalbiga joylash shoir ijodining o'zak masalalaridan biri bo'lib keldi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Adashboyev T. Otam gul tergani ketgan edi... // Ma'rifat, 2005-yil, 27-iyul.
2. Adashboyev T. Orzularim – qo'sh qanotim. – Toshkent: Sharq, 2003. – 192 bet.
3. Adashboyev T. Osmon ko'kmi, zangori? – Toshkent: O'zbekiston, 2018. – 256 bet.
4. Adashboyev T. Osmondagi darvoza. – Toshkent: Sharq, 2018. – 206 bet.
5. 5 Tursunboy Adashboyev zamondoshlari xotirasida. –Toshkent: Sharq, 2019. – 336 bet.
6. Ashurov. B. Tursunboy Adashboyevning poetik mahorati. – Toshkent: Fan, 2011. – 135 bet.
7. Barakayev R. Ashurov B. Tursunboy Adashboyev fenomeniga bir nazar. – Toshkent: Akademnashr, 2014. – 158 bet.
8. Qozoqboy Yo'ldosh. So'z yolqini. – Toshkent: : G'afur G'ulom nomidagi nashriyot matbaa-ijodiy uyi, 2018. –504 bet.
9. Dilshod Rajab. Yoqimli hazil va yorqin tasvir jilvasi. Badiiyat jilvasi. – Toshkent: Muharrir nashriyoti. 2019. – 82 bet